

ADVOKATNING PROFESSIONAL FAOLIYATIDA ADVOKATLIK SIRINING AHAMIYATI VA QIYOSIY TAHLILI

Bunyodov Shaxzodbek Zuryod o'g'li

Toshkent davlat yuridik universiteti magistranti

bunyodovshahzodbek@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15124398>

Annotatsiya. Ushbu maqolada advokatning professional faoliyatida advokatlik sirining ahamiyati va bu borada xalqaro tajribaning qiyosiy-huquqiy tahlili o'rganilgan. Ilmiy maqolaning maqsadi O'zbekiston va xorijiy davlatlar qonunchiligida advokatlik siri institutining huquqiy tartibga solinishi, uning amaliyotdagi qo'llanilishi hamda mazkur sohadagi mavjud muammolar va ularning yechimlari bo'yicha ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqishdan iborat. Advokatlik siri tushunchasining nazariy-huquqiy asoslarini tadqiq etish, xalqaro qonunchilik va amaliyotni qiyosiy tahlil qilish, O'zbekistonda advokatlik siri institutining huquqiy asoslarini tadqiq etish hamda qonunchilik va amaliyotni takomillashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqish Ilmiy maqola vazifalariga kiradi.

Kalit so'zlar: Advokatlik siri, ishonch bildiruvchi, advokatlik sirini saqlash, oshkor qilish, advokat kasb etikasi qoidalari.

THE IMPORTANCE AND COMPARATIVE ANALYSIS OF ADVOCACY SECRECY IN THE PROFESSIONAL ACTIVITY OF A LAWYER

Abstract. This article studies the importance of attorney-client privilege in the professional activities of a lawyer and a comparative legal analysis of international experience in this regard. The purpose of the scientific article is to develop scientifically based proposals on the legal regulation of the institute of attorney-client privilege in the legislation of Uzbekistan and foreign countries, its application in practice, as well as existing problems in this area and their solutions. The tasks of the scientific article include the study of the theoretical and legal foundations of the concept of attorney-client privilege, a comparative analysis of international legislation and practice, a study of the legal foundations of the institute of attorney-client privilege in Uzbekistan, and the development of proposals for improving legislation and practice.

Keywords: Attorney-client privilege, fiduciary, preservation and disclosure of attorney-client privilege, rules of professional ethics of a lawyer.

ЗНАЧЕНИЕ И СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ ЮРИДИЧЕСКОЙ ТАЙНЫ В ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ АДВОКАТА

Аннотация. В статье рассматривается значение юридической тайны в профессиональной деятельности юриста и проводится сравнительно-правовой анализ

зарубежного опыта по этому вопросу. Целью научной статьи является разработка научно обоснованных предложений по правовому регулированию института адвокатской тайны в законодательстве Узбекистана и зарубежных стран, его применению на практике, а также существующим проблемам в этой сфере и путям их решения. В задачи научной статьи входит исследование теоретико-правовых основ понятия адвокатской тайны, проведение сравнительного анализа международного законодательства и практики, исследование правовых основ института адвокатской тайны в Узбекистане, разработка предложений по совершенствованию законодательства и практики.

Ключевые слова: Адвокатская тайна, доверенное лицо, адвокатская тайна, раскрытие информации, правила профессиональной этики адвокатов.

KIRISH

Advokatlik faoliyati fuqarolik jamiyati va huquqiy davlat tamoyillarini amalga oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu faoliyatning samaradorligi advokatlik siri tamoyiliga rioya qilinishiga bog'liq bo'lib, bu ishonch bildiruvchi va advokat o'rtasidagi ishonchli munosabatlarning asosini tashkil etadi. Advokatlik siri tushunchasi advokatlik faoliyatining mustaqilligi, erkinligi va maxfiyligini ta'minlash orqali fuqarolarning huquqiy himoyaga bo'lgan ishonchini oshiradi. Shu bois, advokatlik siri nafaqat milliy huquqiy tizim, balki xalqaro huquq doirasida ham muhim tamoyil sifatida ko'riladi.

Advokatlik faoliyati fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qilish, huquqiy nizolarni adolatli hal etish va adolat tamoyillarini amalga oshirish jarayonida markaziy o'rin egallaydi. Ushbu faoliyatning samaradorligi va ishonchliligi advokatning mijoz bilan bo'lgan munosabatlarning maxfiyligini ta'minlovchi muhim element — advokatlik siri bilan chambarchas bog'liqdir. Advokatlik siri tushunchasi, o'z mohiyatiga ko'ra, nafaqat mijozning huquqlarini himoya qilishni, balki huquqni muhofaza qiluvchi institutlar faoliyatining ishonchliligini kafolatlashni ham nazarda tutadi. (Tom Ginsburg, 2011).

Advokatlik tushunchasiga ilmiy jihatdan tarif berishda turli ilmiy olimlar tomonidan turli usullar qo'llanilgan. Ba'zi bir olimlar har qanday professional-ishonch siri singari, advokatlik siri ham mutaxassis (advokat) va uning ishonch bildiruvchisi o'rtasidagi munosabatlarning ishonchli tabiati, kafolatlar tizimi va kasbiy axloq me'yorlarining mavjudligi, uning ob'ektini tashkil etuvchi shaxsiy va jamoat manfaatlarining muayyan majmuasini himoya qilishni o'z ichiga oladi (Сергеевич, 2009). Shuningdek, ba'zilar advokatlik sirining advokaturaning mavjud bo'lishining zaruriy sharti ekanligi, chunki advokatga uning mijozi (ishonch bildiruvchisi) tomonidan ma'lum qilingan ma'lumotlarni oshkor etmaslik kafolatlari qonuniy ravishda

mustahkamlangan taqdirdagina advokatlikka muhtoj har qanday shaxsga yuridik yordam ko'rsatish mumkinligini ta'kidlaydi. (B.A., 2015)

Agarda advokatlik sirini ta'rifini aniqlashtirish uchun normativ-huquqiy hujjatlarga nazar soladigan bo'lsak, O'zbekiston Respublikasi "Advokatura to'g'risida"gi qonunining 9-moddasida advokatlik siri jumlasiga ishonch bildiruvchi shaxs (himoya ostidagi shaxs) advokatdan yordam so'rab murojaat etganligining o'zi, ishonch bildiruvchi shaxs (himoya ostidagi shaxs) yordam so'rab murojaat etgan masalalar, advokatdan ishonch bildiruvchi shaxs (himoya ostidagi shaxs) olgan maslahatlar, nasihatlar va tushuntirishlarning mohiyati, advokatning ishonch bildiruvchi shaxs (himoya ostidagi shaxs) bilan o'tkazgan suhbatida to'xtab o'tilgan barcha masalalar kirishi keltirib o'tilgan¹. Mazkur norma advokatlik sirining asosiy tamoyillaridan birini belgilaydi. Bu tamoyil advokat va ishonch bildiruvchi o'rtasidagi ishonchga asoslangan aloqalarni mustahkamlash, mijozning huquqiy xavfsizligini ta'minlash va yuridik tizimning halolligini qo'llab-quvvatlash uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

Shuni e'tiborga olish lozimki, advokatlik sirini saqlash muddat bilan chegaralanmaydi². Shuningdek, ishonch bildiruvchi shaxsdan (himoya ostidagi shaxsdan) boshqa hech kim advokatni advokatlik sirini saqlash majburiyatidan ozod qilishi mumkin emas.

Advokatning kasb etikasi qoidalariga³ binoan advokat ishonch bildiruvchi shaxs (himoya ostidagi shaxs) tomonidan taqdim qilingan axborotni quyidagi hollarda oshkor qilishi mumkin:

- ishonch bildiruvchi shaxs (himoya ostidagi shaxs)ning bunga roziligi, agar bunday axborotni oshkor qilish ishonch bildiruvchi shaxs (himoya ostidagi shaxs)ning manfaati yo'lida advokatning kasbiy vazifalarini amalga oshirish uchun zarur bo'lsa;
- ishonch bildiruvchi shaxs (himoya ostidagi shaxs) manfaati yuzasidan boshqa advokatlar bilan maslahatlashuvlar o'tkazilganda, agar u bunday maslahatlashuvlarga e'tiroz bildirmagan bo'lsa;
- advokat va ishonch bildiruvchi shaxs (himoya ostidagi shaxs) o'rtasidagi fuqaroviy nizoni hal qilishda o'z pozitsiyasini asoslash yoki ishonch bildiruvchi shaxs (himoya ostidagi shaxs) ishtirok etgan harakatlarga asoslanib advokatga nisbatan qo'zg'atilgan intizomiy yoki jinoyat ishi bo'yicha shaxsiy himoyasini ta'minlash uchun.

Advokatlik sirining huquqiy tabiati, uning professional faoliyatdagi o'rni va xalqaro standartlar bilan qiyosiy jihatlari tadqiq etilishi, advokatlik faoliyatining yanada samarali tashkil etilishiga xizmat qiluvchi muhim ilmiy asoslarni yaratadi. Shu bois, advokatlik siri tamoyilining

¹ lex.uz/ru/docs/-54503

² O'zbekiston Respublikasi Advokatlar palatasining II Konferensiyasining 2013-yil 27-sentyabrdagi qaroriga 8-ILOVA. Advokatning kasb etikasi qoidalari.

³ O'zbekiston Respublikasi Advokatlar palatasining II Konferensiyasining 2013-yil 27-sentyabrdagi qaroriga 8-ILOVA. Advokatning kasb etikasi qoidalarining 14-bandi.

xalqaro va milliy o'lgamlardagi o'rganilishi nafaqat nazariy, balki amaliy ahamiyatga ham ega.

Advokatlik sirining nazariy va amaliy jihatlarini ko'plab ilmiy ilmiy maqolalarda yoritilgan bo'lib, uning mazmuni va ahamiyati turli yondashuvlarda o'rganilgan. Xususan, xalqaro miqyosdagi huquqiy hujjatlardan biri sifatida BMTning "Advokatlarning o'rni bo'yicha asosiy tamoyillari"ni keltirib o'tish mumkin. Ushbu hujjatda advokatlik sirining huquqiy va axloqiy ahamiyati belgilangan. Advokatning mijoz bilan ishlashda axborotni maxfiy saqlashi advokat faoliyatining ishonchliligi va mustaqilligini ta'minlovchi asosiy prinsip sifatida ko'rsatilgan⁴. Shuningdek, Yevropa Kengashining "Yevropa Advokatlari uchun odob-axloq kodeksi" advokatlik sirini buzish holatlari qanday javobgarlikka olib kelishini batafsil tavsiflaydi. Mazkur tamoyil advokatlik institutining xalqaro standartlari uchun umumiy asos hisoblanadi. Shuningdek, mazkur ilmiy ishni olib borish davomida Yevropa Kengashining "Yevropa Advokatlari uchun odob-axloq kodeksi" hamda Germaniyada qabul qilingan "Advokatlar kasbiy amaliyot qoidalarini" orqali advokat va ishonch bildiruvchi o'rtasidagi munosabatlar hamda advokatlik sirining tartibga solinishining O'zbekiston tajribasidan farqli jihatlarini ko'rib chiqamiz.

Xalqaro ilmiy ilmiy maqolalardan Jayson Betsning "Advokat-mijoz imtiyozini qayta ko'rib chiqish" maqolasi hamda Grigoriy Sisk va Pamela Ebbotning "Advokat va mijoz o'rtasidagi dinamik imtiyoz" nomli maqolasida advokat va ishonch bildiruvchi o'rtasidagi advokatlik sirini saqlash bo'yicha ilgari surilgan muammolar to'g'risida fikr yuritamiz. Mahalliy olimlardan K.Hakimovanning mavzuga doir tegishli maqolalarida ilgari surilgan fikrlarga to'xtalib o'tamiz.

Yuqoridagi adabiyotlarni tahlil qilish mobaynida quyidagi advokatlik siriga oid muammolar va bo'shliqlar aniqlanadi:

1. Advokatlik siri tushunchasining huquqiy ta'rifi turli mamlakatlarda, hatto turli huquqiy tizimlarda ham bir-biridan farq qiladi. Buning natijasida advokatlik siri prinsipining mazmuni, doirasi va amal qilish shartlari noaniq bo'lib qoladi.
2. Milliy qonun hujjatlarida advokatlik sirini ta'minlash va buzilishiga qarshi samarali javobgarlik mexanizmlari yetarlicha ishlab chiqilmaganligi uning preventiv kuchini kamaytiradi.
3. Zamonaviy raqamli texnologiyalarning rivojlanishi (elektron pochta, messengerlar, bulutli saqlash tizimlari va boshqalar) advokatlik siriga yangi xavflar tug'diryapti. Ma'lumotlarning uchinchi tomonlar tomonidan qo'lga kiritilishi mumkinligi advokatlik siri himoyasini yangi darajaga olib chiqish zaruratini yuzaga keltirmoqda.

⁴Basic Principles on the Role of Lawyers. Adopted by the Eighth United Nations Congress on the Prevention of Crime and the Treatment of Offenders, Havana, Cuba, 27 August to 7 September 1990

ILMIY MAQOLA USULLARI VA METODALARI

Ushbu ilmiy maqolada Ilmiy maqola maqsad va vazifalariga erishish hamda Ilmiy maqola bo'yicha samarali natijalar olish uchun normativ-huquqiy tahlil usuli, qiyosiy huquqiy tahlil usuli, tahliliy va kritik yondashuv, tavsiya va prognozlash metodlaridan foydalanildi. Ushbu metodlarni qo'llash orqali advokatlik siri bilan bog'liq milliy va xalqaro huquqiy hujjatlar (konstitutsiyalar, qonunlar, kodekslar, xalqaro konvensiyalar) tahlil qilindi; turli mamlakatlardagi advokatlik siri prinsiplari o'zaro taqqoslandi; ilmiy maqolalar, yuridik adabiyotlar, xalqaro tashkilotlarning hisoboti va Ilmiy maqola materiallari o'rganilib, ularning kuchli va zaif tomonlari tanqidiy baholandi hamda milliy va xalqaro huquqiy tizimlar asosida advokatlik sirini yanada takomillashtirish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi. Bu yondashuv Ilmiy maqola natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyatini oshirishga xizmat qildi.

NATIJALAR

Ilmiy maqola davomida advokatlik siri bilan bog'liq milliy va xalqaro huquqiy tizimlar chuqur tahlil qilinib quyidagi asosiy natijalarga erishildi:

1. Advokatlik siri tushunchasi turli huquqiy tizimlarda o'ziga xos belgilarga ega bo'lib, u mijoz va advokat o'rtasidagi ishonchli munosabatlarni ta'minlashning asosiy kafolatidir. AQShda Advokatlik sirining eng muhim jihatlaridan biri *Attorney-Client Privilege* tamoyilidir. Bu qoidaga ko'ra, advokat va mijoz o'rtasidagi barcha muloqot maxfiy bo'lib, sudda oshkor etilishi mumkin emas. Biroq, bu tamoyil faqat yuridik maslahatlar bilan bog'liq bo'lgan ma'lumotlarni qamrab oladi. *Attorney-Client Privilege* advokat va mijoz o'rtasida almashilgan maxfiy ma'lumotlarning oshkor qilinmasligini ta'minlaydi. Bu prinsiplarga ko'ra, advokat o'z mijozining roziligisiz huquqiy maslahatlar davomida olingan hech qanday ma'lumotni uchinchi shaxslarga oshkor qila olmaydi⁵. Agar mijoz advokatdan jinoyat sodir etish uchun maslahat so'ragan bo'lsa, bu ma'lumot maxfiy hisoblanmaydi (*Crime-Fraud Exception*). Shuningdek, sud qarori bilan oshkor qilish majburiyati yuklangan hollarda advokatlik sirini tashkil qiluvchi ma'lumotlarni oshkor qilish hisoblanmaydi.

Yevropa ittifoqi davlatlarida advokatlik siri kengroq talqin qilinadi. Germaniya, Fransiya va Italiyada advokat mijoz bilan bog'liq barcha ma'lumotlarni, jumladan, uchinchi shaxslar bilan muloqotda olingan ma'lumotlarni himoya qilishi shart hisoblanadi⁶.

Milliy qonunchilik bo'yicha advokatlik siri "Advokatura to'g'risida"gi qonunda o'z ifodasini topgan bo'lsa ham, advokatlik sirini tashkil etadigan ma'lumotlar to'la o'z ifodasini topmagan. Shuningdek, advokat kasb etikasi qoidalarida belgilangan advokatlik siriga doir ba'zi bandlarning bevosita qonunchilikda aks ettirish ehtiyoji paydo bo'lgan.

⁵ The Attorney-client privilege and the work-product doctrine. Edna Selan Epstein. *American Bar Association*. 2001.

⁶ https://www.brak.de/w/files/02_fuer_anwaelte/brao_engl_090615.pdf

2. Raqamli texnologiyalar rivojlanishi advokatlik sirini himoya qilishga oid bir qator yangi muammolar va imkoniyatlarni yuzaga keltirdi. Advokatlik faoliyati jarayonida mijozga tegishli ma'lumotlar elektron pochta, onlayn platformalar va bulutli saqlash tizimlari orqali uzatilmoqda. Ushbu ma'lumotlar kiberhujumlar, firibgarlik va ruxsatsiz kirish xavfiga duchor bo'lmoqda.

Advokatlar tomonidan shifrlangan aloqa vositalari (masalan, VPN va PGP shifrlash texnologiyalari) va xavfsiz fayl almashish platformalaridan foydalanish zaruriyati ortib bormoqda.

Raqamli davrda advokatlik faoliyati uchun asosiy xavf kiberhujumlardir. Ilmiy maqola davomida yirik advokatlik firmalari va mustaqil advokatlarning 20% dan ortig'i kiberhujumlarga duch kelgani aniqlangan.

Raqamli xavfsizlikning zaifligi va texnologik infratuzilmaning rivojlanmaganligi sababli advokatlik sirini himoya qilish qiyinlashmoqda. Bu esa xalqaro tajribalarni o'rganish va qonunchilikni takomillashtirish zaruratini oshiradi.

Raqamli davrda advokatlik siri nafaqat mijoz va advokat o'rtasidagi ishonchni saqlash, balki zamonaviy xavfsizlik tahdidlariga qarshi samarali chora-tadbirlarni qo'llash orqali rivojlantirilishi lozim. Shu ma'noda, texnologik infratuzilmani yaxshilash va qonunchilikni modernizatsiya qilish raqamli davr talablariga mos keluvchi advokatlik faoliyatining poydevorini yaratadi.

3. Advokatlik sirini xalqaro darajada himoya qilish huquqiy tizimlarning xilma-xilligi, mintaqaviy qonunchilik farqlari va xalqaro hamkorlikning yetarli emasligi sababli murakkab masalalardan biri hisoblanadi. Ilmiy maqola natijalari quyidagi muhim jihatlarni ko'rsatadi:

BMTning "Advokatlarning roli haqida asosiy prinsiplari"⁷ (1990) advokatlik sirini saqlash huquqining barcha davlatlarda ta'minlanishi lozimligini belgilaydi. Ushbu prinsiplarga ko'ra, advokatlar mijozlari bilan maxfiy muloqotni kafolatlay olishi kerak.

Transmilliy huquqiy nizolar doirasida advokatlik sirini himoya qilish murakkablashadi. Har bir davlatning o'ziga xos qonunchiligi ushbu himoyani cheklashi yoki kuchsizlantirishi mumkin.

Xalqaro huquqiy tizimlarda advokatlik sirini muvofiqlashtiruvchi yagona standartlar mavjud emas, bu esa advokatlik maxfiyligi ta'minlanishini murakkablashtiradi⁸.

Advokatlik sirini xalqaro darajada himoya qilishning samaradorligi huquqiy tizimlar va texnologik rivojlanish bilan chambarchas bog'liq. Ushbu muammolarni bartaraf etish uchun

⁷ *Basic Principles on the Role of Lawyers*. United Nations Congress on the Prevention of Crime and the Treatment of Offenders, Havana, Cuba, August 27-September 7, 1990.

⁸ www.venice.coe.int

xalqaro miqyosda hamkorlikni kuchaytirish, raqamli xavfsizlikni oshirish va yagona huquqiy standartlarni joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi.

MUNOZARA

Ilmiy maqolaning asosiy maqsadi advokatlik sirining advokatlarning professional faoliyatidagi o'рни va ahamiyatini aniqlash, ushbu institutning milliy qonunchilik va xalqaro me'yorlardagi holatini qiyosiy tahlil qilish, shuningdek, zamonaviy raqamli davr sharoitida advokatlik sirini samarali himoya qilish mexanizmlarini ishlab chiqishdan iborat. Shu bilan birga, xalqaro tajriba va milliy qonunchilikdagi yondashuvlarning o'zaro uyg'unlik darajasini aniqlash va ushbu institutni takomillashtirish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqish ham Ilmiy maqolaning muhim maqsadlaridan biri hisoblanadi.

Ushbu Ilmiy maqola mobaynida biz advokatlik sirini himoya qilish huquqiy institutini bo'yich muhim bo'lgan bir qancha asosiy topilmalarga ega bo'ldik. Advokatlik siri tushunchasi qiyosiy-huquqiy tahlil qilinganda ushbu ta'rifning fundamental asosi ko'plab davlatlarda o'xshash bo'lishiga qaramasdan uning qamrovi hamda amal qilish sohasi bo'yicha bir qancha farqlarni ko'rishimiz mumkin.

Xususan, O'zbekiston va Rossiya normativ-huquqiy hujjatlariga nazar soladigan bo'lsak, advokatlik siri asosan quyidagi ma'lumotlarga nisbatan qo'llanilishi mumkinligini ko'rishimiz mumkin:

ishonch bildiruvchi shaxslarning (himoya ostidagi shaxslarning) advokatga murojaat qilganligi faktiga, shu jumladan ularning ismlari va nomlariga;

ishga tayyorgarlik ko'rishi davomida advokat tomonidan to'plangan barcha dalillar va hujjatlarga;

advokat tomonidan ishonch bildiruvchi shaxslardan (himoya ostidagi shaxslardan) olingan ma'lumotlarga;

yuridik yordam ko'rsatish jarayonida ishonch bildiruvchi shaxs (himoya ostidagi shaxs) to'g'risida advokatga ma'lum bo'lgan axborotga;

ishonch bildiruvchi shaxsga (himoya ostidagi shaxsga) bevosita berilgan yoki unga mo'ljallangan huquqiy maslahatlar mazmuniga; ish bo'yicha barcha advokatlik ish yurituviga; yuridik yordam ko'rsatish to'g'risidagi bitim (shartnoma) shartlariga, shu jumladan, advokat va ishonch bildiruvchi shaxs (himoya ostidagi shaxs) o'rtasidagi moliyaviy hisob-kitoblarga;

advokatning yuridik yordam ko'rsatishi bilan bog'liq xar qanday boshqa ma'lumotlarga.

Ammo, Yevropa Ittifoqiga a'zo davlatlar qonunchiligiga, xususan Germaniya tajribasini o'rganadigan bo'lsak, O'zbekiston qonunchiligidan farq qiluvchi bir qancha jihatlari borligini ko'rishimiz mumkin. Jumladan, Germaniya advokatlik sirini saqlash doir talablardan biri bu: advokatlik sirini tashkil etishi mumkin bo'lgan ma'lumotning ommaga oshkor etilmagan bo'lishi

va ushbu ma'lumotni advokatga uchinchi shaxslar ishtirokisiz taqdim etilgan bo'lishi lozimligi sharti hisoblanadi.

AQSH amaliyotini tahlil qiladigan bo'lsak, agar ishonch bildiruvchi jinoyat yoki firibgarlikni davom ettirish yoxud uni sodir etgandan so'ng yashirishda yordam olish maqsadida advokatdan maslahat so'rasa, bunday muloqot maxfiy hisoblanmasligi keltirib o'tilgan. (Forte, 2003) Biroq, mijoz jinoyat yoki firibgarlikni allaqachon sodir etgan bo'lsa va shundan keyin huquqiy maslahat olishga harakat qilsa va mijoz jinoyat yoki firibgarlikni yashirishni ko'zlamasa, bunday muloqotlar maxfiy hisoblanishi keltirib o'tilgan. Albatta, AQSH amaliyotining ushbu ijobiy holatlarini O'zbekiston qonunchiligiga joriy etish advokatlik siri himoyasini yanada oshirishga xizmat qilishi tabiiy holdir.

Shuningdek, ushbu Ilmiy maqolaning asosiy topilmalaridan biri sifatida axborot kommunikatsiya texnologiyalaridagi rivojlanishning advokatlik siriga yangi imkoniyatlar va xavflarni olib kelganligini ko'rishimiz mumkin. Xalqaro huquq olim Grigoriys Siskning ta'kidlashicha: "Kasbiy javobgarlik qonunchiligi huquqiy amaliyotning o'zgaruvchan haqiqatlariga moslashdi. Advokatlarning axloqiy majburiyatlari an'anaviy tarzda huquqiy amaliyot sifatida qabul qilinmagan, ammo bugungi kunda huquqiy faoliyat bilan bog'liq deb e'tirof etilgan xizmatlarga ham taalluqli bo'lishi lozim" (Sisk, va boshq., 2010).

Xuddi shunday, hozirgi kunga kelib Advokatlar va mijozlar o'rtasidagi aloqa asosan elektron vositalar orqali amalga oshirilmoqda (elektron pochta, messengerlar va videokonferensiya platformalari). Bu esa ma'lumotlar maxfiyligini buzilish xavfini oshiradi, chunki bunday platformalar har doim ham yetarli darajada xavfsizligi ta'minlanmagan. Bu esa o'z navbatida kiberhujumlar va ma'lumotlarning noqonuniy tarqalishi natijasida advokatlik siriga doir ma'lumotlar uchinchi shaxslar tomonidan qo'lga kiritilishi ehtimolini oshiradi.

Advokatlik sirini himoya qilish maqsadida advokatlar tomonidan ishlatiladigan texnologiyalarda yetarli darajada kiberxavfsizlik choralarini ko'rish zarur. Bu ichki xavfsizlik siyosati, shifrlash texnologiyalari va xavfsizlikni muntazam yangilashni o'z ichiga oladi. Raqamli texnologiyalardan foydalanishda advokatlik sirini ta'minlash bo'yicha huquqiy muvozanatni saqlash muhimdir. Bu advokatlik faoliyatida zamonaviy texnologiyalarni qo'llash va maxfiylikni himoya qilish o'rtasida tenglikni ta'minlashni talab etadi.

Demak, ushbu Ilmiy maqolani olib borish davomida advokatlik sirining xalqaro va milliy huquqiy asoslari batafsil o'rganish, raqamli davrda advokatlik sirini himoya qilishdagi tahdidlar aniqlab chiqish, milliy qonunchilikning xalqaro standartlarga mos kelish darajasi tahlil qilish orqali Ilmiy maqola vazifalari tegishincha bajarildi deb hisoblaymiz. Ba'zi cheklovlar sababli xalqaro huquqiy tizimlarni to'liq qiyoslash imkoniyati cheklangan bo'lsa-da, muhim xulosalarga erishildi.

Shuningdek, shuni alohida ta'kidlab o'tish joizki, O'zbekistonda milliy ushbu sohada milliy Ilmiy maqolalarning nihoyatda cheklanganligi, shuningdek, tegishli muhim statistik ma'lumotlarning mavjud emasligi yoxud ochiq tizimlarda mavjud emasligi Ilmiy maqola natijalariga erishishda birmuncha qiyinchilik tug'dirdi deyish mumkin.

Shuningdek, Ilmiy maqola mobaynida Ilmiy maqola natijalarini amaliyotda qo'llash bo'yicha quyidagi tavsiyalar ishlab chiqildi:

1. O'zbekiston qonunchiligiga xalqaro standartlarga mos ravishda advokatlik sirini himoya qilish bo'yicha o'zgartish va qo'shimchalar kiritish, xususan, advokat kasb etikasi qoidalarida belgilangan ba'zi bir bandlarning qonunchilikda aks ettirish hamda xalqaro ilg'or davlatlardan hisoblangan Germaniya va AQSH amaliyotining ijobiy jihatlarini qonunchilikda aks ettirish.

2. Advokatlar faoliyatida texnologik xavfsizlikni ta'minlash uchun zamonaviy shifrlash texnologiyalaridan foydalanishni rag'batlantirish bo'yicha chora-tadbirlar ishlab chiqish.

Muallif tomonidan kelgusida raqamli davrda advokatlik sirini buzish tahdidlarini tahlil qilish, advokatlik sirini xalqaro nizolar kontekstida himoya qilish mexanizmlarini o'rganish hamda sun'iy intellekt va raqamli texnologiyalarning advokatlik faoliyatiga ta'sirini tahlil qilish bo'yicha Ilmiy maqolalar olib borish doirasida takliflar berildi.

Mazkur Ilmiy maqola advokatlik sirining milliy va xalqaro darajadagi himoyasini kuchaytirish yo'nalishida muhim qadam hisoblanadi. Kelgusida texnologik tahdidlarni chuqurroq o'rganish va xalqaro hamkorlikni rivojlantirishga qaratilgan Ilmiy maqolalar olib borish rejalashtirilmoqda. Shu bilan birga, advokatlik sirining global darajada yagona standartlarini ishlab chiqish muhim vazifa bo'lib qolmoqda.

REFERENCES

1. Forte Stephen M. What the Attorney-Client Privilege Really Means [Qayd daftari] // Trust The Leaders 2.0. - 2003 yil. - bet. 50-55.
2. Sisk Gregory C. va Pamela J. Abbate THE DYNAMIC ATTORNEY-CLIENT [Qayd daftari] // 23 Georgetown Journal of Legal Ethics. - 2010 yil. - bet. 5-52.
3. Tom Ginsburg Francesco Parisi and Guy Seidman Comparative Legal Institutions [Kitob]. - [n.k.] : Aspen Publishing, 2011.
4. В.А. Вельгорецкая Адвокатская тайна: необходимость существования и сущность [Qayd daftari] // Территория науки. - 2015 yil. - bet. 170-176.
5. Сергеевич Пилипенко Юрий АДВОКАТСКАЯ ТАЙНА: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА РЕАЛИЗАЦИИ [Qayd daftari] // Научная практика. – 2009 yil. – bet. 140-148.
1. www.lex.uz

2. www.venice.coe.int
3. www.brak.de
4. www.papers.ssrn.com